



## PSIXOLOGIK FAOLIYAT ORQALI MEHRIBONLIK UYI TARBIYALANUVCHILARINI KASBGA YO'NALTIRISH ASOSLAR

**Kuliyeva Gulchehra Xudoyberdiyevna**

Nizomiy nomidagi TDPU, Maktabgacha talim yo'nalishi  
4-kurs talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.8031644>

### ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 05-June 2023 yil

Ma'qullandi: 08-June 2023 yil

Nashr qilindi: 13-June 2023 yil

### KEY WORDS

*mehribonlik uyi  
tarbiyalanuvchilari, kasb,  
psixologiya, motivlar, malaka,  
jamiyat, shaxslararo  
munosabat, layoqat, test,  
metodika..*

### ABSTRACT

*Ushbu maqolada mehribonlik uyi tarbiyalanuvchilarini malum kasbga yo'naltirish va jamiyatda o'z o'rniga ega bo'lishi xususan shaxslararo muloqotga kirishish jarayonidagi kuzatilishi mumkin bo'lgan psixologik muammolarning yechimlari haqida fikr yuritilgan va ilmiy manbalar tahlil qilinib tavsiyalar berilgan.*

Yurtimizda mustaqillik davrida inson shaxsiga nisbatan bo'lgan munosabat keskin o'zgardir. Jamiyatning a'zosi bo'lgan har bir shaxs taqdiriga alohida e'tibor qaratila boshlandi. Ayniqsa, muayyan sabablarga ko'ra, o'z ota-onasidan, yaqin kishilari mehridan mahrum bo'lgan yetim va qarovsiz bolalarga ta'lim-tarbiya berish, alohida ijtimoiy himoyaga olish ishlarining samarali yo'lga qo'yilgani bu borada ulkan ishlar amalga oshirilayotganligining belgisidir.

Mehribonlik uylarida tarbiyalanayotgan bolalarga e'tibor qaratish va ularning ijtimoiy himoyasi borasida hukumat darajasida amaliy ishlar amalga Yurtimizda yetim va qarovsiz bolalarni himoya qilish masalasida ham qonuniy qolibdagi ishlar o'tgan yillarga nisbatan tizimli tarzda yo'lga qo'yilmoqda. Masalan O'zbekiston Respublikasi vazirlar mahkamasining "Yetim bolalar va ota-onasining yoki boshqa qonuniy vakillarining qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarning ijtimoiy himoyasini yanada kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"<sup>1</sup> qabul qilgan qarori ham ijtimoiy soha rivojida har bir qatlamni qamrab olish masalasiga yangicha yondashuv namunasidir

### ADABIYOTLAR SHARHI

Ushbu masala yuzasidan ko'plab ilmiy tadqiqot ishlari amalga oshirilgan. Jumladan, Andresyan A.P., Vinogradova A.A., Kim R.P., Lobanov A.A., Semenova V.Y., Tursunov S., O.Ochilov, Haydarov I.O. kabi tadqiqotchilar ishlarida yetim va qarovsiz bolalar bilan ishlash, bu holatlar yuz berishining yetakchi omillarini va ularning o'ziga xos xususiyatlarini

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 21.11.2020 yildagi 739-son

o'rganish, ularni oilaviy hayotga tayyorlash hamda jamiyatning to'laqonli a'zosi sifatida tarbiyalash kabi qator masalalar ilmiy jihatdan tadqiq etilgan<sup>2</sup>.

Mamlakatimiz olimlaridan Q.Oxunov, O.Jalilov, O.Ochilova, Muhayyo O'ktamxon qizi, N.Po'latova, I.Haydarov kabilar mehribonlik uylari tarbiyalanuvchilarining pedagogik, psixologik, huquqiy, ma'naviy-ma'rifiy jihatlari yuzasidan ilmiy tadqiqot ishlarini olib bordilar<sup>3</sup>.

### TADQIQOT METODOLOGIYASI VA EMPIRIK TAHLIL

Mavzu doirasida fikr yuritganda mehribonlik uyi tarbiyalanuvchilarining kasbga yo'naltirishning individual-psixologik xususiyatlarini o'rganishda V.Shparning shaxs xususiyatlarini o'rganish bo'yicha 16 omilli metodikasidan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Mavzuga oid manbalar tahliliga ko'ra mehribonlik uyi tarbiyalanuvchilarida muayyan faoliyat turini bajarish va tanlash jarayonida ruhiy ikkilanish, ikki xil fikr paydo bo'lishi va malum yo'nalish, kasb va bilim sohasini tanlashda yagona intellektual tanlovni tanlash xususiyati sustligi kuzatiladi.

Chunki ko'pchilik tarbiyalanuvchilarda boshqa bolalarga nisbatan tashqi muhitdan to'silganlik va qaramlik hissidan cho'chich hissi kuchliroq shakllanadi Tashqi voqelikni his qilish xususiyatlari, (sensorlik darajasi past) ruhiy va fiziologik zo'riqishlarga chidamlilik darajasi past-introvertlik shaxs xususiyati mehribonlik uyi tarbiyalanuvchilarida oilada tarbiyalanuvchilarga nisbatan biroz yuqoriligi ko'zga tashlanadi<sup>4</sup>.

Yuqorida tahlil qilingan masalalardan xulosa qilish mumkinki, mehribonlik uyi tarbiyalanuvchilarida hissiy noturg'unlik, hadiksirash va tashvishlanish, asabiylik, ijtimoiy tartib va qoidalarga bo'ysunmaslik, o'zini nazorat qilish darajasining pastligi holatlarini yuqoridagi fikrlar va jadval asosida aniqlash mumkin. Bu o'z navbatida mehribonlik uyi tarbiyalanuvchilarining shaxslararo munosabatlarga o'z ta'sirini ko'rsatganligini ham aniqlash imkonini beradi.

### Mehribonlik uyi tarbiyalanuvchilari shaxs xususiyatlarining ifodalanishi (K.Leongard testi bo'yicha) ( foiz hisobida )<sup>5</sup>

№	Shaxs xususiyatlari	Yosh davri xususiyatlari							Delenkventlik darajasi
		Emansipatsiya reaksiyasi	Tengqurlar bilan guruhlanish reaksiyasi	Ishqibozlik reaksiyasi	Hirsiy mayl reaksiyasi	bolalarga xos xulq-atvor	Kompensatsiya reaksiyasi	Tana-manual va liderlikka intiluvchanlik reaksiyasi	
1	Gipertem	20,24	17,26	18,02	21,65	11,23	13,20	14,35	18,47

<sup>2</sup> Kimsanova. Z. "Mehribonlik uyi tarbiyalanuvchilarining ijtimoiylashuvi jarayonidagi muammolar" Zamonaviy psixologiyada taraqqiyot va ta'limning dolzarb muammolari mavzusidagi ilmiy-amaliy konferensiya materiallari, Andijon- 2016.

<sup>3</sup> Z.P. Komilova "Mehribonlik uylari tarbiyalanuvchilarining ijtimoiylashuvida muloqotchanlikka kirishishning psixologik xususiyatlari" magistrlik dissertatsiyasi Andijon-2017. 55-b

<sup>4</sup> Кон И.С. Психология юношеского возраста. М., 1990

<sup>5</sup> Ziyonet.uz:"Mehribonlik uyi tarbiyalanuvchilarida shaxslararo munosabatlarning psixologik xususiyatlari" dissertatsiya T-2017 65-b

2	Qo'zg'aluvchan	13,24	12,23	15,13	4,81	17,20	16,26	12,54	8,64
3	Emotiv	4,14	8,21	6,23	7,32	8,26	11,32	8,42	8,44
4	Pedantik	7,16	9,16	10,06	9,21	7,82	9,64	10,74	5,42
5	Xavotirlanuvchi	8,32	11,31	4,21	9,32	19,28	8,96	9,96	10,26
6	Siklotomik	8,20	7,20	9,04	8,42	6,20	10,84	7,78	2,55
7	Namoyishkor	10,27	9,21	12,18	10,42	7,41	11,94	13,40	6,74
8	O'zgaruvchan, psixik beqaror	18,14	15,12	11,20	15,23	15,82	8,48	11,32	20,26
9	Distimik	6,24	4,14	7,81	5,34	4,49	4,34	6,30	5,01
10	Ekzaltir	4,14	6,23	6,09	7,27	3,29	5,01	5,18	5,20

Jamlangan ma'lumotlar va o'tkazilgan tadqiqotlardan xulosa qilib ta'kidlash mumkinki, mehribonlik uyi tarbiyalanuvchilari shaxsiga xos bo'lgan individual-psixologik xususiyatlar ularning shaxslararo munosabatlar tizimiga va eng muhimi kasb tanlash va unga yo'naltirilishiga o'z tasirini ko'rsatadi. Ammo usbu metodikani qo'llagan holda ularni muntazam barqaror va jasorat, maqsadga intilish kabi motivlar ruhlantirish va tarbiya jarayonini shu asosida yo'lga qo'yish kelajakda kasbga yo'naltirish uchun muvofiq psixologik holatni shakllantira oladi.

#### **XULOSA VA MUNOZAR**

Umimiy tahlillar natijasiga ko'ra quyidagi xulosa va tavsiyalar ishlab chiqildi:

1. Mehribonlik uyida tarbiyalanuvchi bolalar shaxsiga xos bo'lgan shaxsiy-psixologik xususiyatlar binobarin, aqliy rivojlanish va intellektual xususiyatlari, mustaqil fikr yuritish, o'zini nazorat qilish, amaliylik kabi xususiyatlar jamiyatdagi o'zaro muloqoti va kasbga yo'naltirish, malum yo'lni tanlash kabi amaliy ijtimoiy motivlariga tasir ko'rsatadi.

2. Tarbiyalanuvchilardagi ikkilanish, xavotir, qaramlik, fikriy tutqunlik kabi jihatlarni bartaraf etish jamiyatdagi boshqa qatlam vakillari yani oilada tarbiya olgan bolalar bilan o'zaro nizolarga barham beradi va kasbiy yo'nalishda munosib o'rin egallashiga ko'maklashadi.

Mehribonlik uyi tarbiyalanuvchilarining shaxsiga xos bo'lgan muloqotga kirishimlilik, intilish, tashkilotchilik, mehribonlik kabi qobiliyatlari shaxslararo munosabatlarning jamiyatdagi kasbga yo'naltirish va psixologik tushunish jarayonlarida stimulyazifasini o'taydi.

#### **Adabiyotlar ro'yxati:**

1. Mirziyoyev SH.M. "Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik -har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak" T. O'zbekiston, 2017 yil
2. Kimsanova Z. "Mehribonlik uyi tarbiyalanuvchilarining ijtimoiylashuvi jarayonidagi muammolar" Zamonaviy psixologiyada taraqqiyot va ta'limning dolzarb muammolari mavzusidagi ilmiy-amaliy konferensiya materiallari, Andijon- 2016.
3. Кон И.С. Психология юношеского возраста. М., 2010
4. Maqsudova M. Muloqot psixologiyasi. Toshkent, 2016.
5. Ziyonet.uz, google.com, yan.ru, cyberleninka.ru, arxiv.uz, fayllar.org